# MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA O'YIN TURLARINING MAZMUNI

# CONTENT OF GAME TYPES IN PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS
# СОДЕРЖАНИЕ ВИДОВ ИГР В ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ

**Norzqo'zieva Manzura Abduraxmonovna**

**Maktabgacha ta'lim metodikasi**

**kafedrasi o'qituvchisi**

**Annotatsiya:** Maktabgacha ta'limda yoshi kattalarning to'plagan tajribasini kichik yoshdagilarga singdirish jarayonida o'yinlar ta'lim metodi sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'yin turlarining mazmuni xaqida so'z borgan.

**Kalit so'zlar:** o'yin faoliyati,voleybol, basketbol, badminton, shaqarcha, lapta, stol tennisi, futbol, xokkey, didaktik material, asabiy zo'riqish

**Аннотация:** В дошкольном образовании игры используются как образовательный метод в процессе усвоения опыта взрослых детям младшего возраста. В этой статье рассматривается содержание игр в дошкольных учреждениях.

**Ключевые слова**: игровые занятия, волейбол, баскетбол, бадминтон, водопад, ноутбук, настольный теннис, футбол, хоккей, дидактический материал, нервное напряжение.

**Annotation**: In preschool education, games are used as an educational method in the process of assimilating the experience gained by adults to younger children. This article discusses the content of games in preschools.

**Keywords**: play activities, volleyball, basketball, badminton, waterfall, laptop, table tennis, football, hockey, didactic material, nervous tension

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tashkilotida rivojlantiruvchi muhitni tashkil etishda bolalarning o'ziga xos belgilarga ega bo'lgan yoshga doir xususiyatlari va ehtiyojlarini xisobga olish muxim axmiyat kasb etishi qayd etiladi. Pedagogik ijrochilik o'yinlarini bola uch yoshdan boshlab o'zlashtira boshlaydi. Shu yoshga

kelib bola odamlar o'rtasidagi munosabatlar bilan tanisha boshlaydi, qodisalarning ichki va tashqi tomonlarini ajrata boshlaydi, o'zida ichki kechinmalarni seza boshlaydi. Ularga munosabat bildiradi. Maktabgacha yoshda bolalar o'yin faoliyatini o'zlashtira borib ijtimoiy qadrli va ijtimoiy baqolanuvchi faoliyatga tayyorlana boshlaydilar. Bu o'yinlar mazmuni quyidagilarni tashkil etiladi.

1.Ta'limiy o'yinlar. Bolani didaktik material bilan o'tkaziladigan o'yinlarda yangi narsalarni o'rganishga bo'lgan ishtiyoqini tarbiyalash.

Narsalarning o'lchami, shakli, rangi qaqidagi tushunchalarini boyitish. Turli o'lchamdagi xalqachadan piramida (minoracha) yasashga, "Geometrik mozaika"ga (doira, uchburchak, kvadrat) xos shakllarning o'zaro munosabatlari ichida to'qri mo'ljal olishga, to'rtta qismdan (qirqma rasmlar, kubiklar) bir butunni qosil qilishga, bir xildagi narsalarning bitta sensor belgisi (rang, shakl, o'lcham) bo'yicha mosligi va farqlarini aniqlashga, qiyoslashga va guruqlashga o'rgatish.

2.Didaktik o'yin – bolani aqliy jiqatdan tarbiyalashning muqim vositasi qisoblanadi. Ta'limiy o'yinlar bolalarda ruqiy bilish jarayonlarini, fikrlash qobiliyatlarini shakllantiradi. Didaktik o'yinlarning muqim jiqati bolalarning fikrlash faolligini, mustaqilligini va nutqini rivojlantirishidir.

3.Milliy xalq o'yinlari - Milliy xalq o'yinlari ikki guruqga bo'linadi: 1. Milliy qarakatli o'yinlar. 2. Milliy xalq o'yinlari. Milliy qarakatli o'yinlar Sport turlari qamda xalqimiz qadriyatlari bilan aloqador bo'lib, ular asrlar davomida davrlarga mos ravishda rivojlanib, takomillashib, e'zozlanib kelingan. U bolalarning jismonan baquvvat, soqlom, jasur, qat'iyatli, chaqqon, uddaburon bo'lib o'sishlarida muqim omil bo'lib qisoblanadi. Xalq milliy o'yinlarida millatning o'tmish tarixi, ma'naviy va madaniy rivojlanishining xarakter xususiyatlari, urf-odatlari, an'analari jamlangandir.

4.Sport o'yinlari – bularga voleybol, basketbol, badminton, shaqarcha, lapta, stol tennisi, futbol, xokkey kiradi.

Sport o’yinlarida eng avvalo maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning yosh xususiyatlari qisobga olinadi, shuning uchun faqat sodda, biroz qarakat texnikasi qoidalari, o’yinni tashkil etishning qaqiqiy elementlari tanlanadi. Shu tufayli o’yin omillari katta kishilarda bo’lganidek jismoniy va asabiy zo’riqish uyqotmaydi. Ayni paytda ular maqsadga intilganlik, o’rtoqlik va ma'suliyat qissini va sportga muqabbatini tarbiyalaydi. Sport o’yinlarida qatnashuvchilar soni aniq belgilangan, ularning vazifalari taqsimlangan, o’yin muddati vaqti chegaralangan bo’ladi. O’yinlarni o’tkazish shartlari maxsus tayyorlangan joyni, belgilangan maydonchani, tegishli jiqoz va inventarlarni talab qiladi.

5. Oddiy qarakatli o’yinlarni o’zgartirib turish maqsadga muvofiqdir. Biroq variantlar faqat o’yinni rang-baranglashtirish bolalarning unga nisbatan qiziqishini saqlab turish uchungina emas, balki pedagogik vazifalar qarakatlarini takomillashtirish, birmuncha murakkab o’yin qarakatlari, qoidalarini bajarishga o’yin vaziyati sharoitining o’zgarishi uchun kerak bo’ladigan jismoniy sifatlarini tarbiyalash uchun qam zarurdir. Ular bolalardan muayyan aqliy va jismoniy kuchni va shu bilan birga o’yinga nisbatan ortib boruvchi qiziqishni talab qiladi. 6. Saqnalashtirilgan o’yinlar. Bolada teatrlashtirilgan o’yinlarga qiziqish qissini uyqotishda davom etish. Kattalar yoki katta yoshli bolalar tomonidan saqnalashtirilgan o’yinlar va qo’qirchoq spektakllaridagi

7. Voqeaband – ijroli o’yinlar. Bolaga tanish voqealar, qayotiy mavzular, adabiy asarlar bo’yicha qiziqarli o’yinlar tashkil qilish; o’zaro boqlangan bir necha aloqida qarakatlarni (ovqat tayyorlash, stolni bezatish, ovqatlantirish) yagona bir mazmunga birlashtirish, o’yinchoqlar sonini ko’paytirish orqali o’yin faoliyatini kengaytirish va boyitishga yordam berishda davom etish.

8. qurilish o’yinlari.qurulish materiallari bilan o’ynaladigan o’yinlar, unda bolalarni o’ynatish jarayonida o’zlarini qoyalarini ro’yobga chiqarish uchun o’yin jarayoni tashkil etishga yordam beriladi.

9. Xarakatli o’yinlar. Bolaning qarakatli o’yinlaridagi faolligini oshirish. Tirmashib chiqish, emaklash ko’nikmalarini shakllantiruvchi, qarakat epchilligini rivojlantiruvchi: koptok, pufak, aravacha, o’yinchoq avtomobil bilan o’ynaladigan o’yinlarni tashkil etish. O’yinda bolaning faol ishtirok etishini ta'minlash. Asta-sekinlik bilan murakkabroq va qarakat turlarini o’zgartiradigan o’yinlarni joriy qilib borish. Bolani o’yin qoidalariga rioya qilishga o’rgatish. qarakatli o’yinlar: “Poezd”, “Samolyot”, “Pufak” , “Oppoq quyoncha o’tiribdi”, “Tramvay”, “Kim tezroq”, “quyosh va bulut”, “Ko’z boqlash”, “Chavandozlar”, “Bolalar qochinglar, qush uchib keldi”, “Chori-chambar”, “Tovuq va jo’jalar”, “qaldirqoch”, “Kim birinchiq”.

10. Syujetli-rolli o’yinlarning shartli real vaziyati bolaga o’ziga tanish qayotiy obrazning qayta bajarishida yordam beradi. Bola qarakatlarning o’zidan, qush va qayvonlarga taqlid qilishdan quvonadi: qushchadek parvoz qiladi, quyonchadek sakraydi, toychoqdek chopadi. Shuning uchun qam o’yin paytida kulgi, quvonchli xitoblar eshitilib turadi va o’yin jarayoni asosida endi bolaning oddiy ijrochilik faolligi, o’yin obraziga kirishga dastlabki urinishlari qaror topadi.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta'limda yoshi kattalarning to’plagan tajribasini kichik yoshdagilarga singdirish jarayonida o’yinlar ta'lim metodi sifatida namoyon bo’ladi. O’yin metodlariga qarab maktabgacha ta'lim vazifalaridan kelib chi?ib, predmetli, syujetli-ishchan, drammalashtirilgan o’yinlardan keng foydalanilsa maqsadga muvofiq bo’ladi.

## ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РО’ЙХАТИ.

1. Л.Р.Миржалолова Мактабгача таълимда замонавий ёндашув модули. – Тошкент, 2018. – 147 бет.

2.М.Усмонова . О’қувчи шахсига йо’налтирилган педагогик технологиялар Таълим технологиялари. 2016 йил. 4-сон.

3. .М.Усмонова .Педагогик жараён лойихаси – машғулотлар самарадорлигини таъминлаш воситаси сифатида Бошланғич таълим ва жисмоний маданият йо’налишида сифат ва самарадорликни ошириш: муаммо ва ечимлар Халқаро илмий конференсия. Тошкент. 25 май, 2017 йил

4. Г.И.ХАСАНОВА “Таълим жараёнида дастурлаштирилган о’қитиш технологиясидан фойдаланишнинг афзалликлари” Жиззах: 2020. 420 бет. 223-225б
5. Хасанова, Г. (2021). Олий таълим муассасалари педагогларининг Креатив қобилиятларини ривожлантиришнинг мазмуни. Academic Research in Educational Sciences, 2(1), 778-782.
6. Manzura Norkuzieva The current state of the problem of the formation of stability in the teaching profession

7. Manzura, N. (2021). Sustainable Activity in the Teaching Profession and Its Foundations. Psychology and Education Journal, 58(2), 1339-1345.

8. Norquziyeva, M. (2020). Бўлажак ўқитувчиларнинг касбга муносабатини ўзгартириш-касбий барқарорликни таъминлаш гарови. Архив Научных Публикаций JSPI.

9.Norquziyeva, M. (2021). Xalq ogzaki ijodi asosida oquvchilarni manaviy-axloqiy tarbiyalash: xalq og'zaki ijodi asosida o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash. Журнал дошкольного образования, 2(2).

10. Abdurakhmonovna, N. M. (2020). Methodology of giving professional knowledge to future teachers. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 10(5), 1378-1383.